

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019Yu.20 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ISMAYLOV RAXAT AMINBAYEVICH

**HUQUQNI SHARHLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta'limotlar tarixi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (PhD)

Contents of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Ismaylov Rahat Aminbayevich

Huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari.....3

Исмаилов Рахат Аминбаевич

Вопросы совершенствования теоретико-правовых основ толкования права.....18

Ismaylov Rahat Aminbayevich

Issues of Improving the Theoretical and Legal Foundations of Legal Interpretation.....34

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....37

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019Yu.20 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ISMAYLOV RAXAT AMINBAYEVICH

**HUQUQNI SHARHLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi.
Huquqiy ta'limotlar tarixi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Yu1711 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.karsu.uz) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Berdiyarov Shuxrat Namozboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi phd.03/30.12.2019yu.20 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil ___ avgust kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49, faks: (+99861) 223-60-49, E-mail: karsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49; faks: (+99861) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil ___avgustda tarqatildi.

(2025-yil ___avgustdagi ___raqamli reestr bayonnomasi).

E.D.Kutibayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G.M.Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.T.Tulteev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda huquqiy tizimlarning samaradorligini oshirish, huquqiy aniqlik va bashoratlilikning ta'minlanishi, shuningdek, sudlarning mustaqilligi va huquqni to'g'ri sharhlash masalalarini xalqaro darajada e'tirof etish, uni zamonaviy huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida huquqiy jihatdan kafolatlash, ayniqsa, huquqni sharhlash faoliyatining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, huquqiy amaliyotda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni ko'rish davlat va huquq nazariyasini rivojlantirishning poydevori sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. BMTning «Huquq ustuvorligi indeksi» (Rule of Law Index) hisobotining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha huquqiy tizimlarning samaradorligi va huquqni sharhlash sifati ko'rsatkichlari 2019-2024 yillarda o'rtacha 12,3% ga yaxshilangan bo'lsa, ayni vaqtda 140 ta davlatdan 68 tasida huquqiy aniqlik va bashoratlilikning etishmasligi kuzatilgan¹. Bu esa o'z navbatida huquqni sharhlash faoliyatining nazariy-huquqiy asoslarini mustahkamlash va uni amaliy jihatdan takomillashtirish zarurligi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Jumladan, Jahon Banki tomonidan nashr etilgan «Worldwide Governance Indicators» hisobotida 2024-yilda huquq ustuvorligi ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori natijalar Shimoliy Evropa davlatlarida (89,2%), eng past natijalar esa rivojlanayotgan davlatlarda (34,7%) qayd etilgan². Bu ijobiy va salbiy dinamika huquqni sharhlash mexanizmlarining global jihatdan bir xil darajada rivojlanmaganini hamda ushbu sohaning nazariy-metodologik jihatdan takomillashtirishga ehtiyoj borligini namoyon etadi.

Jahonda huquqni sharhlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, huquqiy talqin faoliyatini rag'batlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonun hujjatlarini izchil va bir xil ma'noda sharhlash tizimini rivojlantirish, huquqiy norma va amaliyot o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning asoslari va chegaralarini aniq belgilash, sun'iy intellekt yordamida huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va sharhlashni huquqiy baholash, raqamli huquqiy texnologiyalar va elektron huquqiy ma'lumotnomalar qo'llab-quvvatlash va ushbu sohalarga investitsiyalar kiritishda ustuvorlik berish bilan bog'liq masalalar muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda huquqiy tizimni takomillashtirish, huquq ustuvorligini ta'minlash, bu sohadagi milliy mexanizmlarni yanada rivojlantirish, xususan, huquqiy hujjatlarni sharhlash faoliyatiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, normativ-huquqiy hujjatlarning aniqligini oshirish va ularni bir xilda qo'llash, huquqiy xizmatlar sifatini yaxshilash, zamonaviy huquqiy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali huquqshunoslar tayyorlash, huquqiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «Yangi O'zbekistonning

¹ World Justice Project Rule of Law Index 2024, World Justice Project, Washington D.C., 2024, p.32. <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/>

² Worldwide Governance Indicators 2024, The World Bank Group, Washington D.C., 2024, p.18. <https://info.worldbank.org/governance/wgi/>

taraqqiyot strategiyasi»da «huquqiy-ma'rifiy ishlarni faollashtirish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy xizmatlar sifatini yaxshilash, huquq qo'llash amaliyotini takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarning aniqligini ta'minlash, ularni bir xil ma'noda sharhlash va qo'llash mexanizmlarini joriy qilish, huquqiy tizimning barqarorligini mustahkamlash, tegishli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, huquqiy institutlarni rivojlantirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, huquqiy modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish» ustuvor maqsadlari sifatida etib belgilangan bo'lib¹, mazkur vazifalar ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni dolzarb etib belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi (2021), «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi (1998), «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi (2018) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5505-son Farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda olib borilgan:

Birinchi yo'nalish, tadqiqot ishining prinsipial tomonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ma'ruzalarida ko'tarilgan bo'lib, ularda huquqni sharhlashning eng muhim jihatlari ochib berilgan.

Ikkinchi yo'nalish, huquqni sharhlash masalasi nisbatan yangi tadqiqot obyektlaridan bo'lganligi sababli, yuridik fanda ushbu mavzu doirasidagi masalalar to'liq o'rganib chiqilmagan bo'lsa-da A.Akilov, M.Axmedshayeva, I.Bekov, Sh.Berdiyarov, Z.Islamov, G.Tastanbekova, M.Najimov, O'.Muxamedov, M.Mirakulov, X.Odilqoriyev, Sh.Saydullayev, A.Sodikov, S.Sultonova, R.Xakimov, X.Ruzmetov, A.Xudoyberdiyev, O.Xusanov, Sh.Yakubov kabi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

huquqshunos olimlarning ushbu sohani u yoki bu jihatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlari e'lon qilingan¹.

Uchinchi yo'nalish, MDH olimlaridan O.M.Belyayeva, A.V.Melaxin, G.Fyodorov, Y.G.Arzasov, E.A.Frolova, V.S.Nersesyans, N.V.Nikish, V.Gaag, V.V.Sorokin, A.T.Karasev, O.D.Ovchinnikovalar huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslari borasida turli xil tadqiqot ishlarini amalga oshirgan².

To'rtinchi yo'nalish, boshqa xorijiy mamlakatlarda huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi bilan Neil MacCormick., A.Barak, G.D.Vatekar, B.Stephane, M.Larry, H.B.Schafer, J.B.Leonardo, A.Dyrda, L.Rodak, E.D.Kevin kabi olimlar shug'ullangan va huquqni sharhlashning nazariy asoslari va yuridik tabiatini ochib bergan³.

Yuqorida sanab o'tilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilish orqali shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslari chuqurroq tadqiq etilishi hamda qonunchilikda tizimli hamda to'liq ifodalanishi kerak.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari» mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

huquqni sharhlash tushunchasi, usullari va uning yuridik tabiatini tahlil qilish;

huquqni sharhlashning huquq tizimida tutgan o'rni va uning turlarini ko'rsatib berish;

huquqni sharhlashning asosiy prinsiplarini tahlil qilish va nazariy-ilmiy jihatdan asoslash;

O'zbekiston Respublikasida qonunlarni sharhlash borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining faoliyatini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida qonunlarni sharhlash faoliyatining huquqiy asoslari va sharhlash tartibini yoritib berish;

qonunchilikni sharhlashning qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonidagi ahamiyatini o'rganish;

xorijiy mamlakatlarning qonunchilikni sharhlash borasidagi tajribasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

O'zbekistonda qonunchilikni sharhlash institutini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va boshqalar.

¹ Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

² Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

³ Mazkur mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni sharhlash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekiston Respublikasida huquqni sharhlashga oid munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda «Davlat va huquq nazariyasi»da mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tasniflash, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqayotgan muammolarga loyihada taklif etilayotgan yechimlarning shaklan va mazmunan ilmiy uslublarga muvofiq ishlab chiqilganligini atroflicha baholash lozimligi asoslangan;

loyihalarning ilmiy ekspertizasi qonuniylik, mustaqillik, xolislik va komplekslik kabi asosiy prinsiplarni hisobga olgan holda o‘tkazilishi zarurligi asoslab berilgan;

loyihani ilmiy ekspertizadan o‘tkazuvchi tashkilot loyihani innovatsion ilmiy uslublar va yondashuvga asoslangan holda ilmiy ekspertizadan o‘tkazishi lozimligi asoslab berilgan;

loyihani ilmiy ekspertizadan o‘tkazuvchi tashkilot loyihani innovatsion ilmiy uslublar va yondashuvga asoslangan holda ilmiy ekspertizadan o‘tkazishi lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga huquqni sharhlash masalalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga huquqni sharhlash hujjatlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Amaldagi bir qancha qonunchilik hujjatlarida uchraydigan “izohlar”dan voz kechish yuzasidan fikrlar ilgari surilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan huquqni sharhlash usullari bo‘yicha metodologik qo‘llanma ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

rasmiy manbalarda nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni e‘lon qilish, balki ular bo‘yicha berilgan rasmiy sharhlarni ham e‘lon qilib borish kerakligi taklif qilingan;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan “Huquqni sharhlash usullari” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqish taklifi asoslab berilgan.

huquqni sharhlash jarayoni tabiiy, obyektiv holat ekanligi, jumladan huquq normasining umumiy, normativ xususiyati bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy asoslab berilgan;

amaldagi qonunchilik hujjatlarida “sharhlash” tushunchasi bilan birgalikda “tushuntirish”, “izohlash”, “aniqlashtirish” kabi atamalar ham qo‘llanilayotganligi asoslangan;

yurisprudensiya yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalari o‘quv rejasiga “Huquqiy germenevtika” modulini joriy etish xulosasi berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan umumnazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar «Davlat va huquq nazariyasi», «Yuridik texnika» va «Konstitutsiyaviy huquq» fanlarida mavjud bo‘lgan nazariy qarashlarni va milliy qonunchilik normalarini hamda huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslangan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingaligi, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik manbalari o‘zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo‘llanilayotganligi, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O‘zbekistonda huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda «Davlat va huquq nazariyasi», «Norma ijodkorligi», «Yuridik texnika» kabi o‘quv modullarni takomillashtirish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasida huquqni sharhlash jarayonini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishda, shuningdek norma ijodkorligi sohasida tadqiqotlarni o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy ijod erkinligining konsitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqayotgan muammolarga loyihada taklif etilayotgan yechimlarning shaklan va mazmunan ilmiy uslublarga muvofiq ishlab chiqilganligini atroflicha baholashga oid takliflari Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizamning 2-bandi birinchi qismi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan. (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2025-yil 3-apreldagi 25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi normativ-huquqiy hujjatlar bo‘yicha sharhlarga ehtiyojni kamaytirishga xizmat qilgan;

loyihalarning ilmiy ekspertizasi qonuniylik, mustaqillik, xolislik va komplekslik kabi asosiy prinsiplarni hisobga olgan holda o‘tkazilishi to‘g‘risidagi taklif Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizamning 3-bandini ishlab chiqishda hisobga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash

departamentining 2025-yil 3-apreldagi 25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi zarur prinsiplarning huquqni sharhlash faoliyatiga kirib kelishiga xizmat qilgan;

loyihani ilmiy ekspertizadan o'tkazuvchi tashkilot loyihani innovatsion ilmiy uslublar va yondashuvga asoslangan holda ilmiy ekspertizadan o'tkazishi lozimligi to'g'risidagi taklif Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 13-bandini ishlab chiqishda ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 3-apreldagi 25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi huquqni sharhlash jarayonini nazariy va ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

loyihaning sifatli ilmiy ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlash maqsadida zarur hollarda ilmiy ekspertizani o'tkazish davomida uchinchi shaxslarni jalb etish to'g'risidagi takliflari Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 14-bandini shakllantirishda e'tiborga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 3-apreldagi 25-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi huquqni sharhlash jarayoniga keng xalq ommasini jalb qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 10 ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 4 ta (1 ta xorijiy nashrlarda) va ilmiy to'plamlarda 6 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 8 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy tavsifi**» deb nomlanib, ushbu bobda huquqni sharhlashga oid tushunchalar tahlili, huquqni sharhlashning yuridik tabiati va huquqni sharhlash faoliyatining asosiy prinsiplari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi huquqshunos olimlarning (I.Bekov, M.Axmedshayeva, X.Odilqoriyev, Z.Islamov, Sh.Saydullayev, A.Sodikov, S.Sultonova, A.Xo‘janazarov, Y.Yarmonova, L.Morozova, V.Nersesyans) yondashuvlari tahlili asosida huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim fundamental tushunchalar va prinsiplar, ularning yuridik tabiatini tahlil qilgan. Shu bois, dissertatsiyaning ushbu bobi doirasida sharhlash, izohlash va talqin qilish tushunchalari qiyosiy o‘rganilgan holda ushbu tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyada huquqni sharhlashga nisbatan huquqni mohiyati haqidagi nazariyalardan kelib chiqqan holda, huquqni sharhlash tishinchasiga turli rakurslardan nazar solingan. Tadqiqotchining fikricha, huquqni sharhlash tushunchasiga nisbatan barcha huquq nazariyalarida nazarda tutilgan yondashuvlarni umumlashtirgan holda yondashish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchi tomonidan muallif ta’rifi sifatida “huquqni sharhlash bu – bu davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat tashkilotlari, ayrim fuqarolar, amaliyotchilar yoki olimlarning huquqiy normalarning mazmunini oydinlashtirishga va ularda ifodalangan qonun chiqaruvchining irodasini ochib berishga qaratilgan faoliyatidir” ta’rifi taklif qilingan. Dissertantning fikricha, mazkur ta’rifdan foydalanilishi huquqni sharhlash jarayonini qamrab olishda huquq nazariyasining umumiy qoidalari nuqtayi nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi.

Tadqiqotchi huquqni sharhlash serqirra yuridik tabiatga ega ekanligini tahlil qiladi va o‘ziga xos bir qancha jihatlarini ajratib ko‘rsatadi. Huquqni sharhlash o‘zida hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi, alohida maxsus fan, yuridik texnik normalar nilan o‘zaro nisbati kabi xususiyatlarni aks ettirishi konseptual jihatdan asoslab berilgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillar umumlashtirilgan holda huquqni sharhlashning predmeti sifatida nafaqat qonun matnini, balki qonun ruhini (qonun qabul qiluvchi subyektning irodasi) ham belgilash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Shu jihatdan, qonun bilan birga, o‘sha qonunga tegishli axborot-tahliliy materiallar ham e’lon qilib borilishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi.

Dissertant doktrinal qarashlar va xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili asosida normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash jarayonini yagona huquqiy hujjat – “Huquq normalarini sharhlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining Qonunini ishlab chiqish orqali yaratishni taklif qilgan.

Doktrinal qarashlar tahlili asosida dissertant huquqni sharhlash faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida “Obyektiv va subyektiv o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik prinsipi”, “Xolislik”, “Asoslilik” kabilarni belgilanishi normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini tushunish va tushuntirib berishda bugungi kunda eng samarali, degan xulosaga kelgan.

Dissertatsiyada fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki tasniflash metodi orqali bir necha mezonlarga ko‘ra tasniflangan va mazkur yondashuv tadqiqot predmeti haqida yanada aniq va kengroq xulosa chiqarish imkonini bergan. Tadqiqotchi tomonidan huquqni sharhlashning qonuniylik, Lingvistik ko‘plik prinsipi, Lingvistik ma’no va yuridik tarkib prinsipi, Sharhning bir xilligi, Maqsadga muvofiqlik kabi prinsiplari muhokama qilingan holda

“Konstitutsiyaga muvofiqlik”, “Vijdonan yondashuv” kabi yangi fundamental prinsiplarni qonunchilikka joriy etish taklifi asoslantirib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**huquqni sharhlash faoliyatining huquqiy mexanizmlari tahlili**»ga bag‘ishlangan bo‘lib, uch paragrafni o‘z ichiga olgan. Ushbu bobda huquqni sharhlashning huquqiy asoslari tahlili, huquqni sharhlashning turlari va usullari hamda Huquqiy amaliyotda huquqni sharhlashning o‘rni kabi masalalar tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada so‘nggi yillarda huquqni sharhlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi, ularda normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarning mazmun-mohiyatini ochib berish jarayoni, tartib taomillari qisman ifoda etilganligi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotchi bugungi kunda tadqiqot predmetiga oid munosabatlar o‘nga yaqin qonun va qonunosti hujjatlaridan joy olganligini, mazkur munosabatlarning huquqiy asoslari bu kabi tarqoq holda ekanligi qonunchilikdagi bo‘shliqlar bilan birga, huquqni sharhlashni to‘laqonli amaliyotga joriy etishda qator qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini ko‘rsatib o‘tgan. Xalqaro tajriba va doktrinal qarashlar tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish, shuningdek ularga sharh berish borasidagi asosiy huquqiy hujjat bo‘lganligi sababli sohaga oid eng muhim tushunchalar aniq, tizimli va to‘liq holda berilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 55-moddasida “normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilgan taqdirda amalga oshiriladi” deb belgilangan. Moddaning ushbu tahrirda berilishi yuridik texnika nuqtayi nazaridan turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi ko‘rsatib o‘tilib, "noaniqlik", "noto'g'ri qo'llanilish", "ziddiyatlilik" kabi tushunchalarning ta’rifi hamda ularni aniqlash mexanizmlari belgilanishi kerakligini asoslab bergan.

Tadqiqotchi idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilgan holda huquqni sharhlash hujjatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunida huquqiy ekspertizaning obyekt sifatida huquqni sharhlash hujjatlarini ham keltirib o‘tish kerakligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, huquqni sharhlash imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun, avvalo, huquqiy asoslari tizimli va to‘liq belgib berilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Dissertant huquqiy asoslar tahlili davomida huquqni sharhlash hujjatlari ham normativ-huquqiy hujjatlar kabi rasmiy manbalarda e’lon qilinishi kerakligini ko‘rsatib o‘tgan. Muallifning fikricha, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga huquqni shahlash hujjatlari majburiy tartibda rasmiy ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi kerakligi to‘g‘risidagi normalar kiritilishi kerak.

Tadqiqotchi huquqni sharhlash bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlarini ko‘rib chiqish va ayrimlariga bugungi kun islohotlari va yangilanishlaridan kelib chiqib

ba'zi o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, eng muhim normativ-huquqiy hujjat turi hisoblangan qonun loyihalarining ishlab chiqilishi va qabul qilinish jarayonining protsessual tartibini belgilab beruvchi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida huquqni sharhlash munosabatlari yetarli darajada tizimli belgilanmaganligini qayd etadi.

Tadqiqotchi ayrim qonunchilik hujjatlarida garchi yuridik texnik normalarga zid bo'lsada "izohlardan" foydalanish amaliyoti kuzatilayotganligini ko'rsatib, bunday salbiy jihatlarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ilgari suradi. Jumladan, "Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinishi lozim bo'lgan shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro'yxati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan "izoh"larni olib tashlash kerak.

Tadqiqotchi huquqni sharhlash faoliyatining huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilgan holda, qonunosti hujjatlariga ham to'xtalib o'tgan. Jumladan, Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarining 102-bandiga "sharhlash jarayonida idoraviy normativ-huquqiy hujjat mazmunidan farq qiluvchi tushuncha va atamalardan foydalanishga maqsadga muvofiqlik prinsipi asosida ruxsat etiladi" mazmunidagi norma kiritilishi joizligini ta'kidlaydi.

Dissertant olimlar (G.Tastanbekova, P.Mikuli, G.Kuca, T.Aitamurto, V.Androshuk, E.Tulyakov, C.Barnard, A.Reale, F.Hendriks) tadqiqotlarini tahlil qilgan huquqni sharhlashni bir necha mezonlarga asosan tasnifini keltiradi: Birinchidan, yuridik kuchiga ko'ra, rasmiy va norasmiy sharh ajratiladi. Rasmiy talqin, o'z navbatida, normativ va kazual turlarga bo'linadi. Normativ sharhlash ham o'z navbatida autentik (mualliflik) va legal (qonuniy) turlarga bo'linadi. Norasmiy sharhlash doktrinal (ilmiy, malakali, kasbiy) va oddiyga bo'linadi. Ikkinchidan, qo'llanish doirasiga ko'ra, talqinning uch turi mavjud: so'zma-so'z (adekvat), kengaytiruvchi (ekstensiv) va cheklovchi.

Tadqiqotchi huquqni sharhlash turlarini tahlil qilish asnosida normativ sharhlash zarurati, talqin qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda tushunarsiz, yetarlicha ravshan bo'lmagan formulalar ko'rinishidagi qonun ijodkorligi xatolari mavjud bo'lgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan turlicha tushunilgan va qo'llaniladigan hollarda yuzaga kelishini, shundan kelib chiqib keyinchalik mazkur rasmiy sharhlar asosida vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxs tomonidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishini asoslab beradi.

Muallifning fikriga ko'ra, huquqni sharhlash hujjatlarining muammosi shundaki, bu kabi hujjatlarning turlari, maqomi va boshqa xususiyatlari rasmiy qonunchilikda aks etmagan. Shu bilan birga, normativ sharhlash hujjatlari normativ-huquqiy hujjatning xususiyatlariga ega emas.

Dissertant sharhlash hujjatlari huquqiy hujjatlarning turlari sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iboratligini ko'rsatib bergan:

ular umumiy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga olmaydi, shuning uchun normativ-huquqiy hujjatlar soniga kirmaydi;

ular yangi huquq normalarini o'rnatmaydilar, amaldagi huquqiy normalarni bekor qilmaydilar yoki o'zgartirmaydilar; huquqning manbai va shakli emas;

mustaqil ahamiyatga ega bo'lmaydi va izohlangan huquq normalarini o'z ichiga olgan, talqin qilinayotgan huquq normasining amal qilish muddati davomidagina yuridik kuchga va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan birlikda harakat qiladi;

amaldagi qonunchilik qoidalarini tushunish va qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar mavjud;

ular majburiy xarakterga ega bo'lib, davlat majburiyatiga ega bo'lib, bu ularni chiqaradigan organlarda davlat hokimiyati organlarining mavjudligi bilan bog'liq;

xatti-harakatlari qonun bilan tartibga solinadigan subyektlarga emas, qoida tariqasida, mansabdor shaxslarga va qonunni qo'llovchi organlarga murojaat qilinadi;

ularning maqsadi qonunni sharhlash va tushuntirishdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Huquqni sharhlashning zamonaviy tendensiyalari**» deb nomlanib, ushbu bobda huquqni sharhlashga oid xorijiy davlatlar tajribasi hamda tegishli qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan huquqni sharhlashga oid xorijiy mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, GFR, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Shveysariya)ning ijobiy tajribasi o'rganilgan va qiyosiy-huquqiy tahlili etilgan.

Tadqiqotda Yevropa davlatlari autentik sharhlashga turli-xil yondashishi ochib berilib, Avstriya umumiy fuqarolik kodeksiga ko'ra ushbu qonunning sharhi faqatgina ushbu qonunni qabul qilgan subyekt tomonidan berilgandagina majburiy hisoblanishi, agarda qonun chiqaruvchi muayyan munosabat yoki predmetga bu qoida taaluqli emasligini ko'rsatmasa, ushbu sharhlash sud ishlari bo'yicha barcha qarorlarda o'z aksini topishi kerakligi, Germaniyada esa autentik sharhlashning yuridik kuchini tan olishi, lekin uni qonun chiqaruvchining maqsadlari haqidagi «deklaratsiya» sifatida qarashini yoritib bergan.

Buyuk Britaniya tajribasidagi jamoatchilik maslahatlarini o'tkazish vaqti, davomiyligi, maslahat predmetining aniqligi, ishtirokchilar uchun ochiqligi, olingan takliflarga munosabat bildirilishi, maslahat jarayonining yo'riqnomasi kabi muhim masalalarni belgilab beruvchi alohida huquqiy hujjatning qabul qilinganligiga e'tibor qaratilgan. Umuman olganda dissertatsiyaning "Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtiroki borasida xorij tajribasi" paragrafida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini tartibga solishga qaratilgan alohida qonun hujjati qabul qilingan Shveysariya, Portugaliya kabi davlatlar amaliyoti tadqiq etilgan.

Dissertant ilg'or xorijiy tajriba sifatida Ispaniyada normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga vakolatli davlat organlarining yillik xarajatlar smetasi tasdiqlanayotganda fuqarolar ishtiroki bilan bog'liq xarajatlar ham hisobga olinishini alohida e'tirof etadi va milliy amaliyotga joriy etish taklifini beradi.

Tadqiqotda Fransuz yuridik doktrinasi sharhlash jarayoniga tor ma'noda ma'lum masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda hal qiluchi ahamiyatga ega

bo'lgan yozma shakldagi ilmiy fikrlarning ifodasi sifatida qarashi, Fransuz yuridik nazariyasi sharhlashning zaruratidan va yuridik xulq-atvor qoidalaridan hamda individual yuridik aktlaridan kelib chiqishi ko'rsatib berilgan.

Dissertant norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirishda, avvalo, mavjud qonun va qonunosti hujjatlari tizimlashtirilishi zarurligini asoslab beradi. Muallifning fikricha, fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini norma ijodkorligining bir metodidan alohida instituti darajasida belgilash vaqti yetgan. Qabul qilinishi kutilayotgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasida yuqori sifatli qonunchilik tizimini yaratishning muhim vositalaridan biri sifatida fuqarolar ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Zero, konseptual xarakterga ega munosabatlar sifatida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki bosqichma-bosqich qonunchilikda o'zining huquqiy asoslariga ega bo'lib boradi.

Tadqiqotchining fikricha, huquqni sharhlash tushunchasi, turlar va munosabatlari, shuningdek huquqiy normalarni sharhlash tartib-taomillari, huquqni sharhlash hujjatlarining huquqiy maqomi va yuridik texnikasi kabi muhim munosabatlar qonun hujjatlari asosida o'rnatilishi va aniq mexanizmlari bayon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

«Huquqni sharhlashning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari» mavzusidagi tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Qonun matnining o'zi muayyan darajada umumiylikka ega bo'lishi tabiiy, chunki umumiy qoidalar alohida holatlarga moslashtirilishi kerak. Bu esa huquqni sharhlash ehtiyojini keltirib chiqaradi. Shuning uchun, turlicha talqin qilishning imkoniyatini to'liq yo'qotishga urinish qonunni murakkablashtirishi va uning hayotga tatbiq etilishini qiyinlashtirishi mumkin.

2. Huquq nazariyasi va amaliyotida "sharhlash" tushunchasi bilan birgalikda "tushuntirish", "izohlash", "aniqlashtirish" kabi atamalar ham qo'llaniladi va ularning alohida yoki sharhlash tushunchasining tarkibida ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilmagan. Shu sababli turli qonun hujjatlarida yuqoridagi tushunchalarning u yoki bunisini uchratishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonunlarida "sharhlash" tushunchasi ishlatilgan bo'lsa, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda "tushuntirish" jumlasidan foydalanilgan. Shuningdek, ular qatoriga Jinoyat kodeksining "Atamalarning huquqiy ma'nosi" deb nomlangan sakkizinchi bo'limini ham kiritishimiz mumkin. Shu jihatdan qonunchilikda mazkur tushunchalarga rasmiy sharh berilishi kerak.

3. Ba'zi tushunchalarga ilmiy-nazariy ta'riflarning ishlab chiqilishi va qonunchilik hujjatlarida aks ettirilishi yuridik amaliyotda yagona va to'g'ri yondashuvning shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, Huquqni sharhlash

tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Huquqni sharhlash normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquq manbalarida aks etgan huquq ijodkorining irodasini to'g'ri tushunish va tushuntirishga qaratilgan jarayon".

4. Huquqni sharhlash predmeti sifatida nafaqat qonun matnini, balki qonun ruhini (qonun qabul qiluvchi subyektning irodasi) ham belgilash maqsadga muvofiq. Bunda qonun bilan birga, o'sha qonunga tegishli axborot-tahliliy materiallar ham e'lon qilib borilishi kerak.

5. Barcha qonunchilik hujjatlarida huquqni tushunish va tushuntirish ma'nosida "sharhlash" terminidan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Konstitutsiyaviy sudning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangunga qadar konstitutsiyaviy qonun va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash vakolatlari qonun ijodkorligining aynan qaysi bosqichida amalga oshirilishi belgilanishi kerak.

7. Qonundagi normalarni aniqlashtirishga, konkret ijtimoiy munosabatlarga moslashtirishga, qonun normalarini amaliyotga qo'llashning tartib-taomillarini belgilashga qaratilgan qonunosti hujjatlarini sharhlashdan farqlash zarur.

8. Qonuniylik prinsipini amalga oshirish uchun huquqni sharhlash faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi kerak. Mazkur normativ-huquqiy hujjatda "Qonuniylik", "Konstitutsiyaga muvofiqlik", "Vijdonan yondashuv" kabi prinsiplar aks etishi kerak.

II. Qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar

9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 133-moddasi birinchi qismiga quyidagi o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq:

1-bandidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoyishlarini chiqarish;

5-bandini "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh beradi" tarzida ifoda etish.

10. O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunida Konstitutsiyaviy sud tomonidan qonun loyihasini konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlash institutini kiritish.

11. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 55-moddasida qo'llanilgan "Noaniqlik", "noto'g'ri qo'llanilish", "ziddiyatlilik" kabi tushunchalarning ta'rifi hamda ularni aniqlash mexanizmlari belgilanishi kerak.

12. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasini quyidagi 3-qism bilan to'ldirish kerak: "Normativ-huquqiy hujjatlarga berilgan rasmiy sharhlar ham huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi".

13. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 39-moddasini quyidagi 5-qism bilan to'ldirish kerak: "Normativ-huquqiy hujjatlarga berilgan rasmiy sharhlar ham mazkur rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak".

14. “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunidan “izoh”larni olib tashlash kerak.

15. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarining 102-bandiga “sharhlash jarayonida idoraviy normativ-huquqiy hujjat mazmunidan farq qiluvchi tushuncha va atamalardan foydalanishga maqsadga muvofiqlik prinsipi asosida ruxsat etiladi” mazmunidagi norma kiritilishi joiz.

16. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasining 4-qismini quyidagi tahrirda ifoda etish maqsadga muvofiq: “Qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar, ushbu tushuntirish berilgan qonunchilikni qo‘llayotgan davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar uchun tavsiyaviy xarakterga ega”.

17. Huquq nazariyasida normativ sharhning uchinchi turi sifatida “sud sharhlari”ni e‘tirof etish maqsadga muvofiq.

III. Amaliy takliflar

18. Yagona davlat huquqiy siyosatini ta‘minlashga vakolatli subyekt sifatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan “Huquqni sharhlash usullari” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

19. Huquqni to‘g‘ri sharhlash va huquq normalarning ma‘nosini to‘g‘ri anglash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda yuridik sohada alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, yurisprudensiya yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalar uchun huquq normalarni tahlil qilish, ularning mazmunini to‘g‘ri anglash? sharhlash va talqin qilishni o‘rgatadigan maxsus fan – “Huquqiy germenevtika” modulini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu fan doirasida huquqiy germenevtikaning nazariy asoslari, huquqni sharhlash va uning huquqiy ahamiyati, huquqni talqin qilishning turlari va yondashuvlari, huquqni sharhlash subyektlari va ularning vakolatlari, Normativ-huquqiy hujjatlar tili va huquqiy matnlar strukturasi tahlil qilish, Huquqni qo‘llashda sharhlashning o‘rni kabi masalalar o‘rganiladi. “Huquqiy germenevtika” fanining o‘quv rejaga kiritilishi talabalarni huquqiy tafakkur, mustaqil tahlil va sharhlash, qonunchilikka tanqidiy yondashuv ruhida tayyorlashga xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PhD.03/30.12.2019.Yu.20 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**
**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

ИСМАИЛОВ РАХАТ АМИНБАЕВИЧ

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫХ
ОСНОВ ТОЛКОВАНИЯ ПРАВА**

12.00.01 - Теория и история государства и права.
История правовых учений

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Нукус - 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/Yu1711

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Утемуратов Махмут Ажимуратович
кандидат юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бердияров Шухрат Намозбоевич
доктор юридических наук, профессор

Ахмедова Муқаддасхон Турсуновна
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

**Академия государственной политики и
управления при Президенте
Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится на заседании Разового научного совета на основе научного совета PhD.03/30.12.2019.yu.20 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете __ августа 2025 года в _____ часов (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, 1. Тел.: (+99861) 223-60-49, факс: (+99861) 223-60-49, E-mail: karsu_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована под No __) (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, 1. Тел.: (+99861) 223-60-49; факс: (+99861) 223-60-49).

Автореферат диссертации разослан __ августа 2025 года.

(Протокол реестра No __ от __ августа 2025 г.).

Э.Д. Кутибаева

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Г.М. Бердимуратова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент

И.Т. Тультеев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Повышение эффективности правовых систем в мире, обеспечение правовой определенности и предсказуемости, а также международное признание вопросов независимости судов и правильного толкования права, его правовое гарантирование как одного из основных принципов современного правового государства, особенно совершенствование теоретико-методологических основ деятельности по толкованию права, принятие ряда мер, направленных на устранение противоречий, возникающих в правовой практике, приобретает актуальное значение как фундамент развития теории государства и права. Согласно данным отчета ООН "Индекс верховенства права" (Rule of Law Index) за 2024 год, показатели эффективности правовых систем и качества толкования права в мире улучшились в среднем на 12,3% в 2019-2024 годах, в то время как в 68 из 140 стран наблюдается недостаток правовой определенности и предсказуемости. Это, в свою очередь, свидетельствует о возрастающей необходимости укрепления теоретико-правовых основ деятельности по толкованию права и ее практического совершенствования. В частности, в отчете "Worldwide Governance Indicators," опубликованном Всемирным банком, в 2024 году самые высокие результаты по показателю верховенства права были зафиксированы в странах Северной Европы (89,2%), а самые низкие - в развивающихся странах (34,7%). Эта положительная и отрицательная динамика демонстрирует, что механизмы толкования права развиты не на одинаковом уровне в глобальном масштабе и существует потребность в теоретико-методологическом совершенствовании данной сферы.

